

**ZAMONAVIY JAMIYATDA KITOBXONLIK MADANIYATINING TRANSFORMATSIYASI VA MARGINALLIK FENOMENINING IJTIMOYIY-MADANIY DETERMINANTLARI**

**Bektursinova Gulmira Joldasbaevna** – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

[gulmira.bektursinova1992@mail.ru](mailto:gulmira.bektursinova1992@mail.ru)

*O'zDSMI Nf*

**ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ И СОЦИОКУЛЬТУРНЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФЕНОМЕНА МАРГИНАЛЬНОСТИ**

**Bektursinova Gulmira Joldasbaevna** – доктор философии (PhD) по философским наукам

*Нукусский филиал Государственного института искусств и культуры Узбекистана*

**TRANSFORMATION OF READING CULTURE IN CONTEMPORARY SOCIETY AND SOCIOCULTURAL DETERMINANTS OF THE PHENOMENON OF MARGINALITY**

**Bektursinova Gulmira Joldasbaevna** – doctor of philosophy (PhD) in philosophical sciences

*Nukus branch of the Uzbek State Institute of Arts and Culture*

**Tayanch soʻzlar:** kitobxonlik madaniyati, transformatsiya, marginallik, ijtimoiy integratsiya, ijtimoiylashuv, madaniy kapital, raqamli jamiyat, axborotlashuv, yoshlar madaniyati, ijtimoiy determinantlar, madaniy siyosat, kommunikativ muhit.

**Rezyume.** Mazkur maqolada zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida kitobxonlik madaniyatining transformatsiyasi va uning marginallik fenomeni bilan oʻzaro bogʻliqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda kitobxonlik amaliyotlariga taʼsir etuvchi asosiy ijtimoiy-madaniy determinantlar — taʼlim muhiti, oilaviy tarbiya hamda raqamli texnologiyalar oʻrni koʻrib chiqiladi. Anʼanaviy kitobxonlik madaniyatining zaiflashuvi ayrim ijtimoiy guruhlarining ijtimoiy izolyatsiyasini kuchaytirishi mumkinligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalarida kitobxonlik madaniyatining ijtimoiy integratsiyani taʼminlash va marginallikni kamaytirishdagi muhim omil ekani taʼkidlanadi.

**Ключевые слова:** культура чтения, трансформация, маргинальность, социальная интеграция, социализация, культурный капитал, цифровое общество, информатизация, молодежная культура, социальные детерминанты, культурная политика, коммуникативная среда.

**Резюме.** В статье рассматривается трансформация культуры чтения в условиях современного цифрового общества и её связь с феноменом маргинальности. Анализируются основные социально-культурные детерминанты, влияющие на снижение или изменение читательских практик, включая образовательную среду, семью и цифровые технологии. Показано, что ослабление традиционной культуры чтения может усиливать процессы социальной изоляции отдельных групп населения. Методологическую основу составляют описательный и комплексный подходы.

**Key words:** reading culture, transformation, marginality, social integration, socialization, cultural capital, digital society, informatization, youth culture, social determinants, cultural policy, communicative environment.

**Summary.** The article examines the transformation of reading culture in the context of contemporary digital society and its connection with the phenomenon of marginality. It analyzes the main socio-cultural determinants influencing the decline or change of reading practices, including the educational environment, family, and digital technologies. The study shows that the weakening of traditional reading culture may intensify processes of social isolation among certain population groups. The methodological basis includes descriptive and complex approaches.

**Kirish.** Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyatning madaniy hayoti tub oʻzgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ayniqsa, kitobxonlik madaniyatining mazmuni, shakli va funksiyalari yangilanib, u nafaqat anʼanaviy bilim manbai, balki shaxsning ijtimoiylashuvi va identifikatsiyasini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Shu bilan birga, mazkur jarayonlar fonida marginallik fenomeni – yaʼni shaxs yoki ijtimoiy guruhlarining jamiyat markaziy qadriyatlaridan chetlanishi

masalasi dolzarblik kasb etmoqda. Kitobxonlik madaniyati – bu nafaqat oʻqish koʻnikmasi, balki insonning axborotni tanlash, tahlil qilish va undan ijtimoiy-amaliy faoliyatda foydalanish darajasini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-madaniy hodisadir. Mashhur sotsiolog olim Pierre Bourdieu oʻzining madaniy kapital nazariyasida kitobxonlikni insonning ijtimoiy mavqeyini belgilovchi muhim resurs sifatida talqin etadi. Uning fikricha, “madaniy kapital taʼlim, bilim va madaniy tajriba orqali shakllanadi va u ijtimoiy tengsizliklarni

qayta ishlab chiqaradi”. Demak, kitobxonlik darajasi past bo‘lgan shaxslar ko‘pincha ijtimoiy marginallik holatiga tushib qolish xavfiga ega bo‘ladi. O‘zbekiston sharoitida ham kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan bir qator tashabbuslar bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish hamda kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorda quyidagicha ta’kidlanadi: *“Yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirishda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega”*. [1] Ushbu normativ hujjat kitobxonlikni jamiyat taraqqiyotining strategik resursi sifatida e’tirof etadi. Zamonaviy jamiyatda kitobxonlik madaniyatining transformatsiyasi, avvalo, raqamli texnologiyalar ta’siri bilan bog‘liq. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va elektron resurslar an’anaviy o‘qish amaliyotini tubdan o‘zgartirdi. Amerikalik futurolog Alvin Toffler bu jarayonni “axborot to‘lqini” deb atab, bilim olish shakllarining keskin o‘zgarishini ta’kidlaydi: *“XXI asr savodsizlari o‘qiy olmaydiganlar emas, balki o‘rganishni, unutishni va qayta o‘rganishni bilmaydiganlar bo‘ladi”*. [3] Bu fikr zamonaviy kitobxonlikning dinamik, moslashuvchan va interaktiv xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

**Usullar.** Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy jamiyatda kitobxonlik madaniyatining transformatsiyasi va marginallik fenomenining ijtimoiy-madaniy determinantlarini o‘rganishda bir qator ilmiy-tadqiqot usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Jumladan, tavsifiy (deskriptiv) usul orqali kitobxonlik madaniyatining hozirgi holati, uning shakllanish tendensiyalari hamda marginallik fenomenining namoyon bo‘lish ko‘rinishlari izchil bayon qilindi.

**Natijalar va munozara.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy jamiyatda kitobxonlik madaniyati sezilarli darajada transformatsiyaga uchramoqda va bu jarayon bevosita marginallik fenomeni bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, an’anaviy kitob o‘qish amaliyotlari asta-sekin raqamli o‘qish shakllari bilan almashib borayotgani, o‘qish jarayonining chuqur tahliliy xususiyatdan ko‘ra tezkor va fragmentar xarakter kasb etayotganini kuzatish mumkin. Bu esa kitobxonlikning sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir etib, ayrim ijtimoiy guruhlar orasida bilimni yuzaki o‘zlashtirish holatlarini kuchaytirmoqda. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, kitobxonlik madaniyatining

pasayishi yoki noto‘g‘ri shakllanishi shaxsning ijtimoiy integratsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va uni marginallik holatiga yaqinlashtiradi. [4] Bu jarayon, ayniqsa, yoshlar orasida yaqqol namoyon bo‘lib, ularning ijtimoiy faolligi, tanqidiy fikrlashi va madaniy identifikatsiyasida muammolarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, Pierre Bourdieu tomonidan ilgari surilgan madaniy kapital nazariyasi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topadi, ya’ni kitobxonlik darajasi past bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy imkoniyatlari ham cheklanadi. Munozara jarayonida turli ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy raqamli muhitni faqat salbiy omil sifatida baholash biryoqlama qarash hisoblanadi. Aksincha, raqamli texnologiyalar kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ham yaratmoqda. Masalan, elektron kutubxonalar, audiokitoblar va onlayn ta’lim platformalari keng auditoriyani qamrab olish imkonini bermoqda. Bu borada Alvin Tofflerning axborot jamiyati haqidagi qarashlari dolzarbligini saqlab qolmoqda, ya’ni bilim olish shakllari o‘zgarayotgan bo‘lsa-da, uning ahamiyati ortib bormoqda. [5] Shu bilan birga, tadqiqot natijalari marginallik fenomenining faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki madaniy va axborot omillari bilan ham chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatdi. Xususan, kitobxonlik madaniyatining past darajada rivojlanganligi ijtimoiy chetlanish, kommunikativ izolyatsiya va madaniy passivlikka olib keluvchi muhim determinantlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa Robert E. Park tomonidan ilgari surilgan marginallik nazariyasining zamonaviy talqinini kengaytiradi. [6] O‘zbekiston sharoitida olib borilayotgan islohotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan siyosat ijtimoiy marginallikni kamaytirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari asosida amalga oshirilayotgan dasturlar aholining, ayniqsa yoshlarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, madaniy ongini rivojlantirish va jamiyatga integratsiyalashuvini ta’minlashga yordam bermoqda. Munozara natijalariga ko‘ra, kitobxonlik madaniyati va marginallik o‘rtasidagi bog‘liqlikni bir yoqlama emas, balki ko‘p omilli tizim sifatida ko‘rib chiqish zarurligi asoslandi. Ya’ni, kitobxonlikni rivojlantirish faqat ta’lim tizimi bilan cheklanmasdan, oilaviy muhit, ijtimoiy institutlar, axborot siyosati va madaniy infratuzilma bilan uzviy bog‘liq holda olib borilishi lozim. so‘nggi yillarda o‘tkazilgan

sotsiologik kuzatuvlar yoshlar orasida o‘qishga ajratiladigan vaqtning qisqarib borayotganini ko‘rsatadi. Bu holat, o‘z navbatida, ularning tahliliy fikrlash darajasi, nutq madaniyati va ijtimoiy faolligiga bevosita ta’sir qilmoqda. Masalan, oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan ayrim kuzatuvlarda muntazam badiiy va ilmiy adabiyot o‘qiydigan talabalar bilan o‘qimaydigan talabalar o‘rtasida fikrlash chuqurligi va muammoli vaziyatlarga yondashuvda sezilarli farqlar aniqlangan.[7] Shuningdek, xalqaro tajriba ham bu bog‘liqlikni tasdiqlaydi. Rivojlangan davlatlarda, xususan Skandinaviya mamlakatlarida kitobxonlik madaniyati yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, bu jamiyatlarda ijtimoiy tengsizlik va marginallik darajasi nisbatan pastligi kuzatiladi. Bu yerda kitobxonlik nafaqat ta’lim tizimi orqali, balki oilaviy va ijtimoiy qadriyat sifatida ham shakllantiriladi. Aksincha, kitobxonlik darajasi past bo‘lgan hududlarda yoshlar orasida ijtimoiy chetlanish, passivlik va hatto deviant xulq-atvor holatlari ko‘proq uchrashi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Tadqiqot natijalarini yanada kengroq talqin qilishda Pierre Bourdieuning “madaniy kapital” tushunchasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning nazariyasiga ko‘ra, kitobxonlik orqali shakllanadigan bilim va intellektual ko‘nikmalar insonning ijtimoiy maydondagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Demak, kitob o‘qish imkoniyatlari cheklangan yoki unga qiziqishi past bo‘lgan shaxslar ijtimoiy ierarxiyada quyi pog‘onaga tushib qolish ehtimoli yuqori bo‘ladi, bu esa marginallikni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, zamonaviy raqamli madaniyat sharoitida “soxta kitobxonlik” fenomeni ham yuzaga kelmoqda. Ya’ni, ayrim shaxslar o‘zlarini kitobxon sifatida ko‘rsatishiga qaramay, aslida chuqur o‘qish va tahlil qilish ko‘nikmalariga ega emas. Ijtimoiy tarmoqlarda qisqa iqtiboslar, sarlavhalar yoki yuzaki sharhlar

bilan cheklanib qolish holatlari keng tarqalmoqda. Bu esa bilimning fragmentarlashuviga olib kelib, shaxsning ijtimoiy va madaniy identifikatsiyasida bo‘shliqlarni yuzaga keltiradi. Natijada, bunday shaxslar axborot oqimida yo‘nalishni yo‘qotib, marginallik holatiga tushib qolishi mumkin.[8]

O‘zbekiston misolida ham ijobiy va muammoli jihatlarni birgalikda kuzatish mumkin. So‘nggi yillarda kitobxonlikni targ‘ib qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Kutubxonalar sonining ortishi, kitob yarmarkalari, “Eng kitobxon yosh” kabi tanlovlarning tashkil etilishi yoshlar orasida o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda axborot-resurs markazlarining yetarli darajada ishlamasligi yoki zamonaviy adabiyotlar bilan ta’minlanmaganligi muammosi ham saqlanib qolmoqda. Bu esa hududlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyati darajasida tafovutlarni keltirib chiqarmoqda va ayrim guruhlarining madaniy jihatdan chetda qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Munozaraning yana bir muhim jihati – kitobxonlik madaniyatining shaxsning psixologik holatiga ta’siridir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam kitob o‘qish insonning empatiya darajasini oshiradi, stressni kamaytiradi va ijtimoiy moslashuvni yaxshilaydi. Aksincha, o‘qishdan uzoqlashgan shaxslar ko‘proq virtual muhitga qaram bo‘lib qolishi, real ijtimoiy aloqalarda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bu esa marginallikning psixologik asoslarini ham shakllantiradi. Shu asosda aytish mumkinki, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish nafaqat ma’rifiy, balki ijtimoiy profilaktik ahamiyatga ham ega. Ya’ni, u marginallikning oldini olish, ijtimoiy integratsiyani mustahkamlash va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bois, kelgusida bu yo‘nalishda kompleks ilmiy-amaliy dasturlar ishlab chiqish, ayniqsa yoshlar bilan ishlashda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. *“Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish hamda kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaror.* – T., 2017.
2. Shavkat Mirziyoyev. *“Yangi O‘zbekiston strategiyasi”.* – Toshkent: 2021. Iqtibos: “Ma’naviy taraqqiyotga erishish – bu, avvalo, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bilan chambarchas bog‘liq.”
3. Bektursinova G.J. *Kitobxonlik madaniyati: ilmiy-falsafiy tahlil.* – Toshkent, 2022.
4. Ergasheva D.Sh.. *Yoshlar madaniyati transformatsiyasi va global axborot muhitining ta’siri.* – PhD dissertatsiya, Toshkent, 2021.
5. Raxmatullayev Sh.A. *Ijtimoiy marginallik va uning zamonaviy ko‘rinishlari.* – Ilmiy maqola, 2023.
6. Quronov M. *Ma’naviy tarbiya asoslari.* – Toshkent, 2019.
7. To‘xtaxodjayeva M.. *Ta’lim va madaniyat integratsiyasi.* – Toshkent, 2018.
8. Musayev S. *Ijtimoiy stratifikatsiya va marginallik.* – Toshkent, 2021. Rasulov A.. *Axborot jamiyati va yoshlar madaniyati.* – Toshkent, 2023.